

2025-yil, may 11-son



ISSN 2021-9752

# Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

***Yozgi ta'til – kitob mutolaasi  
bilan mazmunli!***



san'at ustalariga ergashib ish ko'ruvchi oqimlar yuzaga keldi. Tasviriy san'atda haykal va portret; rassomlikda mozaika, manzara, natyurmort janrlariga ahamiyat ortdi. Ellinizm san'ati Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida mahalliy san'atning qadimiy an'analari bilan uyg'unlikda rivojlandi.

Demak, tarixiy vaziyat, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy munosabatlardagi globallashuv fikr-tuyg'uning makoniy kengayib, zamoniy chegaralardan o'zib, yanada boyib borishi, dunyo xalqlari madaniyatining uyg'unlashuvini, yangi hodisalarning paydo bo'lishini ham taqozo etadi. Bu fikr o'zbek romannavislari antik falsafaning Suqrot (*Sokrat*), Aflotun (*Platon*), Arastu (*Aristotel*) va boshqa vakillari fikrlariga tayanishlari, XIX asr Yevropa falsafiy yo'nalishlarida yaralgan asarlardan o'rganishlari, shuningdek, tasavvufiy qarashlarga mayl bildirishlarining obyektiv asoslari ham mavjud ekanligini ko'rsatadi.

Ijod ahli fikrlash madaniyatida gumanistik tamoyillar ustuvorligi madaniy merosning turli davr mahsullariga bo'lgan qiziqishni kuchaytirdi. Yevropa Renessansi yoxud Sharq Uyg'unish davrida kuzatilganidek, antik falsafa namoyandalarining asarlarini o'rganishga bo'lgan kuchli intilishni yuzaga chiqardi. Zotan, erkin fikr yuritish kuni kecha o'zgarmas deb qaralgan haqiqatlardan voz kechishga, botiniy iste'dod va qobiliyatni ro'yobga chiqarish, ilmiy-falsafiy merosni o'ziga xos tadqiq qilish orqali insonning eng oliy qadriyat ekanligini isbotlashga imkon beradi. Zamondosh ijodkorlarimizda fikr teranlashgani, ko'ngil ingichkalashgani uchun ham bugungi o'zbek adabiyotida insonning botinini tadqiq etishga e'tibor ortdi.

Adabiyotshunosligimizda G'arb estetikasi va badiiyati tamoyillari bilan zamonaviy adabiy jarayon hodisalarini bog'lashga kuchli intilish mavjud. Shubhasiz, biz bu harakatning ijobiy jihatlari inkor etmaymiz. Ammo jonli adabiy jarayon tajribalarini o'rganish, romanchiligimiz yetakchi tamoyillarini milliy va jahoniy asoslarda tadqiq etish adabiy-nazariy izlanishlarimizning asosini tashkil etadi. Adabiy jarayon ijodiylikka asoslangani bois, plyuralistik yangicha ijodiy tafakkur badiiy ijod tarzida ham ko'p tarmoqlilikni keltirib chiqardi. Bu esa yondashuv usullari ham poetik hodisaning murakkab milliy tabiatiga mutanosib bo'lishini, birinchi navbatda, romanda muallif nigohi orqali tasavvur qilingan borliqni tahlil qilishni talab etadi.

Illo, yozuvchining insonni tushunish va ifodalash yo'li milliy-adabiy an'analar zaminiga ijodiy yondashuv

orqaligina o'tadi. Chunki yozuvchi millat kishisining ma'naviyati qirralarini tekshiradi, uning ruhiyatidagi ko'z ilg'amas sezimlarni o'z ichki ehtiyojidan kelib chiqib tadqiq etadi. Bu jarayonda fikrlash, anglash, ta'sirlanish hamda tushuntirish tamomila milliy asosda va mutlaqo individual tarzda kechadi. Zero, milliy istiqloq davrida o'zbekning olam hodisalarini qabul qilish va unga yondashish tarzida sezilarli siljish sodir bo'ldi. O'zbek romani o'z taraqqiyotining oldingi bosqichlariga nisbatan teranroq darajada milliyliklashdi.

Chunki ijtimoiy va badiiy ong sog'lomlashdi, fikrlar plyuralizmi tufayli adabiy hodisalar qayta idrok etila boshlandi. Millat nazaridan yashirin bo'lgan ko'plab asarlarning estetik olami inkishof etildi. Natijada olamni estetik idrok etish, tasvirlash, badiiy ijodning vazifalari bobidagi qarashlar ancha kengaydi. Minglab qo'lyozmalar ilmiy iste'molga kiritildi. Ular orasida qadimgi mif va afsonalardan tortib "Avesto", "Xuastuanift", "Irq bitigi", "Oltin yoruq" dostonigacha; Imom Ismoil al-Buxoriyning "Al-jome' as sahih", Zayniddin Muhammad G'azzoliyning "Kimyoi saodat", Mavlono Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy", Xoja Ahror Valiyning "Risolai volidiya", Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniy", So'fi Oллоhyorning "Maslaku-l-muttaqin", Is'hoq Bog'istoniyning "Tazkirai qalandaron" asarlari; Fitrat, Cho'lpon Qodiriy bitiklarigacha uchratish mumkin. Shuning uchun ham umuman, o'zbek adabiyoti, xususan, milliy romanchilik taraqqiyotini F.M.Dostoyevskiy, F.Nisshe yoxud Z.Freyd umuman olganda, yevropacha estetik qarashlar ta'siri doirasidagina izohlash uning milliy-estetik hodisa ekanligiga birmuncha putur yetkazadi.

Dostoyevskiyning "Bechora odam" (1846) romanida xo'rlangan, ijtimoiy adolatsizlikka duchor bo'lgan "kichkina odamlar" ning ulkan qismati, odam haqida kuyunchaklik, ulug' insonparvarlik "Stepanchikov qishlog'i va uning aholisi" (1859), "Xo'rlanganlar va haqoratlanganlar" (1861), "O'lik xonadondan maktublar" (1861-1862) asarlarida jaholat botqog'iga botib, insoniy qiyofasini yo'qotgan ruslar hayoti hikoya qilinadi. Yozuvchining "Jinoyat va jazo" (1866), "Telba" (1868) romanlarida ham rus xalqining ma'naviy muammolari qalamga olinadi. "Jinlar" (1871-1872), "O'smir" (1875) romanlarida esa rus "oqsuyaklari" tabaqasi, amaldorlar orasidagi ma'naviy qashshoqlik, amalparastlik, ochko'zlik va xudbinlik kabi illatlar chuqur ildiz otgani ko'rsatilgan. "Og'a-ini Karamazovlar" (1879-1880) romanida esa



**Sevinchoy YOQUBOVA,**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**E-pochta:** [sevinchoy.yakubova@mail.ru](mailto:sevinchoy.yakubova@mail.ru)

## O'ZBEK JADID SHE'RIYATIDA AN'ANAVIY POETIK OBRAZLARNING YANGILANISHI

**Annotatsiya:** maqolada mumtoz adabiyotimizning eng yaxshi an'analari o'zbek jadid she'riyati rivojiga asos bo'lib xizmat qilgani kuzatildi. Muallif o'zbek she'riyatidagi poetik obrazlarni kuzatib, jadid shoirlari ijodida ularga yangi ma'no va mazmun yuklatilganini tadqiq etgan. O'zbek jadid shoirlari she'riyatida keng qo'llanilgan "bog", "gul", "bulbul", "qorong'i kecha", "yo'l", "darvesh – yo'lchi" kabi obrazlar tahlilga tortilgan.

Maqolada Cho'lpon, Fitrat singari shoirlar ijodidagi ko'plab she'rlarining zohiriy va botiniy qirralari kuzatilib, muayyan umumlashmalar chiqarilgan.

**Kalit so'zlar:** she'riyat, ramz, talqin, tuyg'u va kechinma, lirik qahramon, badiylik, botiniy mazmun.

**Аннотация:** в статье отмечается, что лучшие традиции нашей классической литературы послужили основой развития современной узбекской поэзии. Автор прослеживает поэтические образы в узбекской поэзии и исследует, как им придается новый смысл и содержание в произведениях современных поэтов. Такие образы, как "сад", "цветок", "соловей", "темная ночь", "путь", "дарवेश-юльчи" которые широко используются в поэзии современных узбекских поэтов.

В статье рассмотрены внешние и внутренние аспекты многих стихотворений таких поэтов, как Чулпон, Фитрат, сделаны некоторые обобщения.

**Ключевые слова:** поэзия, символ, интерпретация, чувство и переживание, лирический герой, искусство, внутреннее содержание.

**Annotation:** the article notes that the best traditions of our classical literature served as a basis for the development of modern Uzbek poetry. The author follows the poetic images in Uzbek poetry and investigates how they are given new meaning and content in the works of modern poets. Images such as "bog", "gul", "bulbul", "qorong'i kecha", "yo'l", "davrvesh – yo'lchi" ("garden", "flower", "nightingale", "dark night", "way", "darvesh-yulchi"), which are widely used in the poetry of modern Uzbek poets, are analysed.

In the article the external and internal aspects of many poems of such poets as Cholpon, Fitrat have been observed and certain generalizations have been made.

**Key words:** poetry, symbol, interpretation, feeling and experience, lyrical hero, art, inner content.

Badiiy ijodning asosini obrazli fikrlash tashkil etib, adabiyotshunoslikda obrazga turli xil munosabat bildirilgan. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov badiiy obrazni: "... borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksi, tamoman yangi mavjudlik – badiiy borliq" [Quronov D. 2004:11] ekaniga diqqat qaratadi. Obrazlar namoyon bo'lishida: a) konkretlik; b) individuallashtirilgan umumlashma ekanlik; d) ratsional va emotsional birlik ekanligi; e)

metaforiklik; f) assotsiativlik muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Adabiyotshunos Erkin Xudoyberdiyev fikricha obrazlar quyidagi ikkita muhim xususiyati bilan ajralib turadi: a) kitobxonga hissiy ta'sir qilishni ta'minlovchi jonli, aniqlik va o'ziga xos belgilarga boylilik; b) umumiy (tipik) belgilarni mujassamlashtirishi." [Xudoyberdiyev E. 2008: 40]

Binobarin, obrazli tafakkur hosilasi bo'lgan badiiy adabiyot inson his-tuyg'ulari, ong-tafakkuri va ruhini poklash, qalbini yuksaltirish orqali

umummillat taqdiriga ham kuchli ta'sir etuvchi vositadir.

Darhaqiqat, XX asrning 20-yillariga kelib badiiy adabiyot real hayotga yaqinlashdi. Janrlar tarkibi yangilandi va g'oyaviy mazmuni, obrazlar olami mohiyat e'tibori bilan Vatan ozodligi, millat erki hamda uning ruhini uyg'otish singari ma'rifiy-axloqiy va ijtimoiy-siyosiy muammolar badiiy yechimini topishga yo'naltirildi. She'riyat xalq jonli hayoti va turmush tarziga yaqinlashgani bois, an'anaviy aruz vaznidan ko'ra, barmoq vazniga ko'proq murojaat etildi. Uning tili sodda, ohangi esa, tobora xalqchil bo'la bordi. Demak, o'zgarish va yangilanishlar "hamd" va "na't" lar mazmuni, vazn, obrazlar olami, shakl (janr), sarlavhalanish (kompozitsiya) kabi turli sathlarda sodir bo'ldi. Adabiyotshunos Nodira Afoqova ta'kidlaganiday: "*Jadid adabiyoti – an'ana va yangilik kesishgan chorrahada maydonga kelgan adabiyotdir... eskilik va yangilik aynan jadid adiblari ijodida – she'riyatda ro'baro' keldi.*" [Afoqova N. 2006: 9].

Jadid shoirlarining shiddat bilan o'zgarayotgan real hayot hodisalariga bo'lgan hozirjavob munosabati turg'un an'analar, xususan, poetik obraz va ramzlar qo'llashni yangiladi, XX asr boshlari o'zbek she'riyatini boshqa o'zanga burib yubordi. Garchand "... an'analarni birgina ijodkor ham boshqa o'zanlarga burib yuborishga qodir" [Turdimov Sh. 2020: 6], bo'lsa-da, o'zligini anglagan badiiy ijod ahlining aksariyati jadid adabiyotida kuzatilgan o'zgarishlarning yuzaga chiqishiga faol hissa qo'shishdi. Obraz tushunchasining doirasiga, nainki, inson va uning fikr-kechinmalari badiiy ifodasi, balki peyzaj tasviri, turli buyum – detallar, hayvonot dunyosi ham qamrab olinadi. Chunki badiiy obraz bir vaqtning o'zida ham jonli voqelik aksini, ham san'atkorning o'zligini ifodalaydi [To'ychiyeva Sh. 2008: 4].

Mumtoz adabiyotimizning eng yaxshi an'analari o'zbek jadid she'riyatiga ham asos bo'lib xizmat qildi. Jumladan, Cho'lpon she'riyatidagi "oshiq" va "yor" obrazlari badiiy talqinida bu hol yorqin namoyon bo'ladi. Shubhasiz, bu hol shoir dunyoqarashi, kamol topgan muhiti, iste'dodining tabiati, ijtimoiy hayot voqeligiga munosabat bildirish yo'sini singari ko'plab omillar bilan bog'liqlikda yuzaga chiqadi. Oshiq obrazi Cho'lpon lirikasida "*bulbul*", "*qul*", "*ko'ngil*", "*jon*", "*daraxt*" kabi poetik timsollar bilan

tanosibiy munosabatda keladi va ko'pincha shoir "men"ini ifoda etadi.

Cho'lpon she'rlarida kengliklarda uchishga talpinayotgan qush timsoliga ko'p murojaat etiladi. Shoir erkka tashna, dasht-yobon kengliklari hamda dengiz haybatli to'lqinlarini sog'ingan qadim Sharqning asriy orzularini aslida ko'ngil qushi ma'nosida badiiy ifoda etadi. "Ulug' yo'lda" she'riga e'tibor qaratamiz:

*Qushlar yanglig' uchaylik,  
Keng cho'llardan, dengizlardan kechaylik,  
Sharqning eski chigalini yechaylik!* [Cho'lpon. 1991:190].

Albatta, yuqoridagi kabi ozodlik va hurlik sog'inchi qafasdagi tutqun qush – Cho'lpon, Turkiston va Sharqning she'r yozilgan davrdagi kayfiyat-holini ifoda etadi. Shoir "Ishq yo'li" she'rinda erk va ozodlik haqidagi orzu-umid va sog'inchlarini "*qorong'i kecha*", "*yo'l*", "*darvesh – yo'lchi*" obrazlari orqali ifoda etadi. She'r mazmunidan anglashiladiki: "*Bir kecha menga xuddi bir yildir*", deya o'rtanayotgan lirik qahramon g'oyat yolg'iz bo'lsa-da, u umidsizlikka tushmay olg'a intiladi.

Biroq "Raqamlik sevgi" she'rinda behad cho'zilgan hijron va: "*Yuzlaring bir, ko'zlaring o'n, so'zlaring ming aldadi*" qabilida ma'shuqaning yuz, ko'z, so'zlariga aldanish hollari sodir bo'lishi lirik qahramon ko'nglida iztirob uyg'otadi. Bu o'rinda mumtoz adabiyotdagi "*raqib*" obrazi: "*O'yna, kul, guldek egil, yovlar uchun, yovlar uchun*" tarzida, ya'ni "*yovlar*" shaklida hamda ta'kidni kuchaytirish uchun takror holatda keladi. Insonlik martabasiga zid barcha noma'qul sifatlarni anglatadi.

She'rning lirik qahramoni: "*Biz yotaylik yo'llaringda yosta, tuproq qil butun*", deya ma'shuqa uchun fido bo'lishga tayyor, ishq yo'lida xokisor ekani jihatidan an'anaviy oshiqlar safida turadi. Cho'lpon to'rt unsur (*o't, suv, shamol va tufroq*)ning har birida muayyan holat, mayl va sifat mujassamligini yaxshi biladi. Shuning uchun lirik qahramon hissiyotlarini chizishda tufroqning sabr va umid, ezgu xulq hamda muruvvat ramzi ekanidan foydalanadi. Zotan tufroq bo'lish nainki xokisorlik, balki ulug'lik sari intilish va kibrdan poklanish, o'zlikni anglash hamdir. Hazrat Navoiyning: "*Ey Navoiy, o'zni maqbul istasang tufroq bo'l*" yoxud: "*vafo ahli erur tufroq*" kabi ta'kidlarini eslashning o'ziyoq fikrimizni dalillaydi. Demak, lirik qahramonning istirohatni tark

etib, bedorlikda iztirob chekishidan uning o'zlikni anglash va poklanish yo'lida ekani anglashiladi.

Qadimgi Xitoy falsafasida bir raqami – baxtsizlik ramzi. Uch raqami esa uch asosiy qudrat manbalari: (*osmon, yer va inson*) va uch yorug'lik manbai: (*quyosh, oy, yulduz*)ni tamsil etgan [Jumayeva S. 2012: 2]. Bu jihatdan qaralganda ham, shoirning unsurlarda ma'no va mazmun ko'rishini o'zini oqlaydi. Qolaversa, biz "cho'lpon" so'zining lug'aviy ma'nosi eng yorug' "tong yulduzi" ekani, shoir o'z nigohini olislarga tikkani, fikri keng, xayolot ufqi yuksakligini unutmashimiz kerak. Yuqoridagi misollar adabiyotshunosligimizda shakllangan: "*Cho'lpon she'riyatini to'la ijtimoiylashgan*", degan qarashdan bir qadar xorijga chiqishi, shoirning badiiy ifoda uslubi mumtoz an'anadan butkul uzilmaganini ko'rsatishi jihatidan ham xarakterlidir.

Muqaddas Tojiboyeva jadid adiblari ijodidagi mumtoz adabiyot an'alarini tadqiq etarkan, Hamzaning Navoiy, Munis, Amiriy, Nodira, Muqimiy, Furqat she'riyatidagi turfa ohanglardan ta'sirlanib, ularga ergashib yozilgan ijod namunalariga ham e'tibor qaratadi (3. 56). Hamzaning "Sango" radifli g'azalidan: "*Yosh oqub ikki ko'zumdin Nuhni to'fonidek, / Nolayi dilso'z ila haddin fano bo'ldum sango*" kabi baytlarini tahlilga tortgan olimaning uning Alisher Navoiy g'azaliga hamohang ekani, ayni paytda, lirik qahramonning ma'shuqaga bo'lgan muhabbati, fidoiyligini tavsif etishi bilan Munis g'azaliga ham yaqinlashishini ta'kidlaydi. Zotan, Hamzaning o'z sevgilisi – Vatanga bo'lgan muhabbati shu qadar kuchliki, lirik qahramon buni:

*Bir jon emas, ey suyguli, tomirlarning qoni vatan,  
Sensan bale, bilganlarga jonlarni jononi vatan*  
(12.45).

tarzida izhor etadi. Anglashiladiki, Hamza mahbubani an'anaviy tarzda jonning jononasi tarzidagina tushunmaydi. Nainki jon, balki tomirlarda oqayotgan hayotbaxsh qon kabi aziz biladi va ardoqlaydi.

O'zbek jadid she'riyatida "kishan" obraziga ham faol murojaat qilingan. Masalan, Cho'lponning "Qo'zg'olish" she'rida "xaqir qul" o'rnida ko'rilgan xalq nomidan "afandi" (janob) larga murojaat qilinarkan: "*Titra, qo'rqkim, bog'liq quling bosh ko'targan kuch endi!*" [Tojiboyeva M. 2017:59], deyiladi. Shoir bu dadil hayqirig'i orqali har qanday kamsitish va xo'rlashlarga qarshi isyon tuyg'ulari, dard-

faryodlarini ifodalaydi. Millatdoshlarini istibdod va jaholatga qarshi birlashish, qo'zg'alishga da'vat etadi. Demak, jafokash xalqni o'z kuchiga ishonitirish va zinhor umidsizlanmaslikka chorlovchi xalqparvar shoir sifatida namoyon bo'ladi.

Cho'lpon va Fitrat o'zbek jadid adabiyotining ikki mustahkam qoyasi edi. Ulardan qay biriga ustunlik berish fikrida hatto Fitratning o'zi ham ikkilangan. Prof. Begali Qosimov ta'kidlashicha, Fitrat: "*Barmoq vaznidagi birinchi she'rni men yozdimmi, Cho'lpon yozdimmi – eslolmayman, ammo barmoqni nazariy jihatdan birinchi bo'lib yoqlab chiqqanlardan men edim*" [Qosimov B. 1994:98] – deb yozgan edi.

Darhaqiqat, zamon shiddatini ifodalashni ko'zlagan Fitrat barmoq va sochma (mansura) larni o'zbek folklori, turk va tatar adabiyotlaridan zamonaviy milliy she'riyatimizga olib kirgan, nazariy jihatdan himoya qilgan ziyolilardan biri edi.

"Yurt qayg'usi"ni aks ettirishga qulay, she'riyatga xos nafis tuyg'u-ohanglar ustuvorlik qiluvchi lirik nasr – mansuralar ham jahon adabiyotining faol janriga aylandi. Jumladan, Xitoy milliy adabiyoti asoschisi Lu Sinning "Yovvoyi O'tlar" (1927), shved shoiri Artur Nilsning "Oqar suvda ko'rganlarning"(1978) kabi she'riy to'plamlari lirik nasrning go'zal namunalaridir.

Fitrat "Mening kecham" she'rida tabiat manzaralari va ijtimoiy jarayonlarni muqoyasa qilarkan, tun zulmatidan keluvchi mungli kayfiyatini ijod sha'mi va ko'ngil nurlari bilan yoritmoqqa mayl bildiradi:

*So'lg'un, qora, turg'un dema. Ko'rdim  
mungli kechamning mungli chog'inda,  
ko'b mungli uyimning qirog'inda  
yolg'uz iki narsa yondosh-da:  
biri sham'im, biri...  
ko'nglim! [Fitrat.2000:44].*

Fitrat badiiy izlanishlari an'anaviy she'riy tizimni yangilashga intilgani, olmon romantiklari, fransuz simvolistlari, usmonli turk, tatar va rus she'riyatining erkin she'r vaznlariga xos badiiy ifoda yo'sinlari, xususan, ritmik birlik, vazn, qofiya va turoqdan xoli "verlibir", "svobodnyy stix" ("erkin she'r") shaklini ijodiy o'zlashtirganining guvohi bo'lamiz. O'zbek shoirlari "sarbast" deb atashgan yangi vazn birinchi navbatda, Fitratga o'zining his-tuyg'ularini obrazli ifodalash imkonini berdi. Ayni paytda, shoir poetik so'z va iboralarning o'ziga xos qurilishini ta'minlash,

she'riy sintaksis va badiiy san'atlardan mahorat bilan foydalanish tajribasini ham takomillashtirdi.

Mungli oniy kayfiyat uyg'otgan "so'lg'un", "qora", "turg'un" ijtimoiy vaziyat-holatni sha'mning shu'lasiyu ko'ngilning harorati bilan zidlantiradi. Boshqacha aytganda, shakl unsurlarini badiiy mazmun bilan uyg'unlashtirib, emotsional ta'sirchanlikni oshirishga muvaffaq bo'ldi. Uning bu xayrli an'anasi o'zbek she'riyatida keyinchalik Oybek, Mirtemir, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Bahrom

Ro'zimuhammad, Faxriyor kabi ko'plab shoirlar tomonidan ijodiy davom qildirildi.

Umuman, jadid shoirlari "bog", "gul", "bulbul" an'anaviy obrazlariga tayanib, madaniyat va ma'rifatdan yiroqlashtirilgan, qadriyatlarini toptalgan elning dardini kuylashdi. Chunki bu davr shoirlarining fikr-qarashlari umuminsoniy g'oyalar va milliy ruhiyatga vobasta edi. Lirik qahramonning jafokash va g'amzada kayfiyati, o'lka ayanchli qismati haqidagi iztirobli o'ylari ularni birlashtiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Afoqova N. 2006. O'zbek jadid adabiyotida she'riy shakllar taraqqiyoti tamoyillari. Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent.
2. Jumayeva S. 2012. She'riyat va raqam / Badiiy matn tahlili va talqin muammolari to'plami. – T. 112-115-b.
3. Tojiboyeva M. 2017. Jadid adiblari ijodida mumtoz adabiyot an'analari. Filol. fan. d-i (DSc) ... diss. – Toshkent. 283-b.
4. Tozagul Matyokubova Islamjon Yakubov. 2020. Laboratory works of gafur gulam: poetic image and imagery // International journal of Advanced Science and Technology. – № 6. – Pp. 28-37.
5. Turdimov Sh. 2020. Xalq qo'shiqlarida ramz. – Toshken: Fan. 192-b.
6. To'ychiyeva Sh. 2010. Yangi o'zbek adabiyoti va Cho'lpon ijodi. – T.: Sharq. 132-b.
7. Xudoyberdiyev E. 2008. Adabiyotshunoslikka kirish, – T. 368-b.
8. Cho'lpon. 1991. Yana oldim sozimni. – T., 1991. 574-b.
9. Cho'lpon. 1994. Asarlar. Uch jildlik. J.1. – T.: Adabiyot va san'at. 448-b.
10. Fitrat. 2000. Tanlangan asarlar. Besh jildlik. J1. – T.: Ma'naviyat, 2000. 256-b.
11. Qosimov B. 1994. Maslakdoshlar. – T.: Sharq. 160-b.
12. Qur'onov D. 2004. Adabiyotshunoslikka kirish. – T. 228-b.
13. Hamza Hakimzoda Niyoziy. 1988. To'la asarlar to'plami. Besh jildlik. J.2. – T.: Fan. 564-b.
14. Yakubov I. 2017. Transformatsiya esteticheskix vzglyadov i sovremennyy uzbekskiy roman // Theoretical & Applied Science. №12. Pp. 120-125.
15. Yokubova S.I. 2022. Jadid she'riyatida peyzaj bilan bog'liq poetik obrazlar tasviri // O'zbekiston:til va madaniyat. – Toshkent. № 3. 42-54-b.
16. Yokubova S.I. 2023. Jadid she'riyatida ramzlar: semiotik va germeneytik talqin // O'zbekiston: til va madaniyat. – Toshkent. № 3. 79-90-b.

## Ilmiy-metodik elektron jurnal

### TAHRIR HAY'ATI:

Nizomiddin Mahmudov, Yorqinjon Odilov,  
Jabbor Eshonqulov, Baxtiyor Daniyarov,  
Abdurahim Nosirov, To'liqin Saydaliyev,  
Barno Buranova, Zulxumor Mirzayeva,  
Qozoqboy Yo'ldoshev, Bahodir Jovliyev,  
Salima Jumayeva, Qayum Baymirov,  
Manzar Abdulxayrov, Alijon Safarov,  
Husniddin Norqulov, Odiljon Boynazarov,  
Madina Nuriddinova, Barno Kadirova,  
Nargiza Mirzayeva, Guli Shukurova,  
Yuldosh Raxmatov, Ramziddin Abdusatorov,  
Feruz Manukyan, Gulchexra Keldiyorova,  
Gulsanam Xolikulova, Komiljon Qarshiyev,  
Svetlana Umirova, Xolmo'min Fayzullayev,  
Nilufar Namazova, Dilbar Niyazova,  
Sayyora Halimova, Shaxnoza Yunusova,  
Nigoraxon Ro'zibayeva, Tadjixon Sabitova,  
Oqila To'raqulova.

### Bosh muharrir:

Nargiza Berdiyeva

### Muharrirlar:

Bibimariyam Rahmonova,  
Shabnam G'aniyeva, Bonu Do'smatova

### Sahifalovchi:

Rustambek Yusupov

### Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi 30-uy.

### Telefonlar:

(93) 759-43-66, (77) 003-34-33,  
(94) 095-96-22, (90) 288-32-92.

**E-mail:** tilvaadabiyotuz@gmail.com

### Axborot hamkorimiz:

**TIL VA ADABIYOT TA'LIMI**  
ilmiy-metodik jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya, Pedagogika hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.  
<https://oak.uz/pages/4802>



## MUNDARIJA

### DOLZARB MAVZU

#### Islomjon YAQUBOV.

Istiqlol davri romanlarining falsafiy-estetik asoslari..... 3

#### Yo'ldosh SOLIJONOV, Moxitabon MO'MINOVA.

Badiiy adabiyotda jamodot obrazi ..... 8

#### Adiba DAVLATOVA.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida mustamlakachilik asoratlarining badiiy va psixologik ifodasini postkolonial tahlil metodi asosida o'rganish muammosi ..... 10

#### Shaxlo YULDASHEVA.

Qardosh tillar fonetikasi: o'zbek tili ta'limida lingvometodik qiyoslash..... 15

#### Muhammad HAKIMOV, Mohinur SODIQOVA.

Onlayn tarjimonlar va sun'iy intellekt vositalarida enigmatik matnlarning tarjimasini ..... 21

#### Rukiya ASHURBAYEV.

O'zbek tilining global tilga aylanish istiqbollari: geosiyosiy va madaniy omillar tahlili..... 23

#### Oqiljon MAVLONOV.

Navoiy ma'naviy olamiga yo'l ..... 27

### TILSHUNOSLIK

#### Ikromjon XABIBJONOV.

Murakkab birikma terminlarning metaforik shakllanish mexanizmlari..... 31

#### Avazjon ZIYAYEV.

O'xshatish va metaforalarda intensivikasiya/deintensifikasiya semantikasining voqelanishi..... 34

#### Shuhratjon QALANDAROV.

Lingvokulturologiyada til va madaniyat tushunchalarining uyg'unligi ..... 37

#### Dilnozaxon BURXANOVA.

Kognitiv lingvistika fan sifatida..... 40

#### Munajot ADILOVA.

Tabiiy tilni qayta ishlash yo'nalishlarida so'z turkumlarini teglash ahamiyati ..... 43

#### Qahramon ESHBOYEV.

O'zbek tili izohli lug'atlariga semantik darajalanish metodologiyasini takomillashtirish ..... 46

<b>Gavhar SALOMOVA.</b> Qisqartma so'zlarning tipologiyasi va klassifikatsiyasi.....	49
<b>Asqar ESHMUMINOV, Shahnoza TURSUNOVA.</b> Assotsiativ lug'atlarning lingvistik asoslari.....	53
<b>Abdumannon HASANOV.</b> Polisemantik so'zlarning yangi ma'nolar bilan boyib borishi .....	56
<b>Adibaxon TO'RAXO'JAYEVA.</b> O'zbek orfografiyasining shakllanish jarayonlari .....	61
<b>Shirin SADIKOVA, Nozima VALIYEVA.</b> Tilshunoslikda diskurs tushunchasi va badiiy diskursning xususiyatlari.....	63
<b>Muhayyo ERGASHOVA.</b> "Lokallik" semali birliklar va lokal maydon.....	66
<b>Umidjon YIGITALIYEV.</b> Lisoniy tizim yaxlitligi va unda "shaxs omili" tushunchasining assotsiativ-verbal ifodalanishi.....	69
<b>Akbarjon XASANOV.</b> Antonim juftliklarda semantik asimmetriya masalasi.....	72
<b>Shaxlo XALILOVA, Rushana QODIROVA.</b> O'timli va o'timsiz fe'llar: nazariy va amaliy tahlili.....	76
<b>Усербай БАЙКАБИЛОВ.</b> Қазақ тіліндегі кейбір фразалар төркіні.....	78

## ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>Ibodatxon RUSTAMOVA, OyguL SOTVOLDIYEVA.</b> Hajviy hikoyalarda roviy funksiyasining o'ziga xosligi .....	82
<b>Nodira XOLIKOVA.</b> Xotin-qizlar obrazi talqinida ismoil gasprali ijodining tutgan o'rni .....	84
<b>Rayhonoy SAIDOVA.</b> Badiiy matnning struktur tahlilida munosabatlar va diskursda belgi mohiyati .....	87
<b>Umida SHERMATOVA.</b> Jadid adabiyoti manbalarida da'vatkor ruh.....	90
<b>Sevinchoy YOQUBOVA.</b> O'zbek jadid she'riyatida an'anaviy poetik obrazlarning yangilanishi.....	94
<b>Tozagul MATYOQUBOVA.</b> G'afur g'ulom poetik merosida gumanistik pafos.....	98
<b>Arofatoy MUYDINOVA.</b> Toshkent adabiy muhitida muvashshahchilik an'anasi.....	102
<b>Shaxnozaxon KARIMOVA.</b> Dunyo adabiyotshunosligida she'r poetik sintaksisi tadqiqi .....	105

<b>Nasima QODIROVA.</b> Yozuvchi – tanqidchi uslubining rivoji .....	107
<b>Tojixon TOSHBOLTAYEVA.</b> Bir dilbari abro' kamon .....	110
<b>Abdulhamid QURBONOV.</b> Yusuf alayhissalomning uch ko'ylagi.....	113
<b>Muzaffar JURAYEV.</b> "Nahjul farodis" ("Jannatlarning ochiq yo'li") asarining matniy tadqiqi.....	116
<b>Islombek MANNOPOV, Munajatxon QODIROVA.</b> So'fiy muhammad donishmand hayoti va faoliyati manbalari .....	119
<b>Жандос БАЙЗАКОВ.</b> Абай іліміндегі "тұлға" мәселесі.....	122
<b>Гульмира МАМАДЖАНОВА, Тимур АЮПОВ.</b> Художественные элементы реальности и буддистских аллюзийв романе В.О. Пелевина "Чапаев и пустота" .....	124
<b>Галина Ен-Уновна Пак.</b> Огонь как символ подавления и возрождения: сравнительный анализ романов дж.оруэлла и р.брэдбери .....	128
<b>Nargiza AKHROROVA.</b> The wrongly introduced hero in "To kill a mockingbird".....	132

## ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

<b>Gulbakhar ABILOVA, Ayzada KALMURATOVA.</b> Texnika yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'qitishda o'quv dasturlari va platformalaridan foydalanishning dolzarb muammolari .....	136
<b>Nigora ERKINOVA.</b> Lingvistik tahlil uslublarining o'zbek tili darslarida qo'llanish tajribalari .....	139
<b>Dilbar TOSHEVA.</b> Til o'rganish va o'qitishda o'quv lug'atlaridan foydalanishning muhim ahamiyati .....	143
<b>Muxayyo RIZAXANOVA.</b> Chet tillarni o'qitishda yangi innovatsion metodlardan foydalanish .....	145
<b>Baxtixon ISROILOVA.</b> Ingliz tilini samarali o'qitishda kommunikativ-kognitiv yondashuv xususiyatlari va uning tamoyillari.....	147
<b>Dilafroz SUBANOVA.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishning nazariy asoslari .....	150
<b>Gulhayo BAROTOVA.</b> The role of technology in modern teaching .....	153

## TADQIQOTLAR

- Kamola XAMIDOVA,**  
**Adibaxon TURAXOJAYEVA.**  
Alisher Navoiy asarlarida  
toponimik variantdorlik..... 156
- Oygu MATKURBANOVA.**  
Qamchibek kenja hikoyalarning  
til xususiyatlari ..... 158
- Davronbek ORIPOV.**  
“Kitabi dadam qo‘rqut” ning nusxalari:  
qiyos, tahlil va tafovut ..... 161
- Xasan G‘AFFOROV.**  
Ziddiyatli vaziyatlardagi nutqiy gender stereotiplar  
hamda ularning pragmatik xususiyatlari ..... 164
- Sanobar KAMOLOVA.**  
Fransuz antroponimlarining  
milliy–madaniy jihatlarini ..... 167
- Gulnora XUDOYBERGANOVA.**  
O‘rta asr monastirlarida kun tartibi va  
ibodat amaliyoti..... 170
- Nasiba RAIMNAZAROVA.**  
O‘zbek dostonlarida sheva so‘zlarining berilishi..... 173
- Saodat MO‘MINOVA.**  
“Vaqt”ning falsafiy–intellektual talqini ..... 175
- Zebuniso YOQUBOVA,**  
**Dilafro‘z QALANDAROVA.**  
Ikkinchi jahon urushi va uning insoniyat  
taqdiriga ta‘siri masalalari ..... 177
- D. BUZRUKOVA,**  
**M. SOLIJONOVA.**  
Badiiy asarlarda milliy mentalitetning  
ifodalanishi..... 180
- Xusnida SOLIYEVA.**  
Badiiy asarda intertekstuallikning  
ochib berilishi javlon jovliyevning  
“Qo‘rqma” asari asosida ..... 182
- Kamola JUMAYEVA.**  
Xoqoniy shirvoniy qasida shaklidagi  
marsiyalarining kompozitsion xususiyatlari..... 185
- Ismigul IMOMOVA.**  
Abdurauf fitrat dramalarida frazeologizmlar –  
lingvopoetik birlik sifatida ..... 188
- Odil YOQUBOV.**  
Oybek his qilgan nafasat ..... 191
- Shoxruxbek MAXMIDJONOV.**  
Tohir malikning “falak” qissasida ziyoli obrazi  
ruhiyatining badiiy tahlili..... 194
- Farida XAKIMOVA,**  
**Zayniddin TOSHPO‘LATOV,**  
**Sevinch ABIROVA.**  
Istiqlol davri o‘zbek nasri va  
shodmonqul salom ijodi ..... 196
- Zuxra QARSHIBOYEVA.**  
Sergey yesenin ijodi namunalarini  
o‘zbek sinflarida o‘rganish usullari..... 199
- Aziza NAIMOVA.**  
Metahikoya janr xususiyatlarining  
“1q84” asari negizida tahlili..... 202
- Farida NE‘MATOVA.**  
Tarjimashunoslikda tarjima jarayoniga  
kommunikativ–funktional yondashuv ..... 205
- Xurshida OLIMOVA.**  
Adabiy matnlarda badiiy ifoda vositalarining  
funktional–semantik xususiyatlari ..... 208
- Diyora MAMANAZAROVA.**  
Maxsus matnlar tarjimasida  
lingvopragmatikaning o‘rni..... 211
- Zuhra TURSUNBAYEVA.**  
Tarixiy asarlar tarjimasida harbiy sohaga oid  
leksikaning berilishi..... 214
- Dilorom MIRSAGATOVA.**  
Temir yo‘l terminologiyasida sinonimiya:  
nazariy asoslar va tarjima muammolari ..... 217
- Shaxzod ABDULLAYEV.**  
Temur tuzuklari inglizcha tarjimasida harbiy  
terminlarning berilishi..... 220
- Sanjarbek ABDULHAMIDOV.**  
Tilshunoslik tarixida  
kategoriyalash konsepti ..... 224
- Najibullo SAYFULLAYEV.**  
Milliy korpus va uning ahamiyati..... 227
- Go‘zalxon YOQUBJONOVA.**  
Steam ta‘lim konsepsiyasining ilmiy–metodologik  
manbalari va tarixiy taraqqiyoti ..... 230
- Dilso‘z XOSHIMOVA.**  
Allyuziyaning turlari ..... 233
- Gulnoza SALIMOVA.**  
So‘roq gaplar va pragmatik kontekst munosabatlari:  
lingvistik va kommunikativ aspektlar..... 235
- Vazira XOLMATOVA.**  
So‘roq gaplar mazmunida kechadigan pragmatik  
transpozitsiya..... 237
- Maftuna MAJIDOVA.**  
Pragmatika va semantika birliklarining ma‘no  
qamrovi va kontekst to‘qnashuvi ..... 239
- Solijon AZIZOV.**  
“Jinoyat” va “adolat” konseptosferalarining  
lingvosemantik va pragmatik o‘ziga xosliklari ..... 242
- Mohinur SALIMOVA.**  
O‘zbek tilida turkumlararo transformatsiya:  
grammatik va semantik o‘zgarishlarning  
nazariy hamda amaliy tahlili ..... 246
- Durdona MUMINOVA.**  
Til lokalizatsiyasining lingvomadaniy moslashuvi va  
undagi muammolar ..... 248
- Nodiraxon ISMATOVA.**  
Rang toponimiyasining umumiy tasnifi ..... 250
- Jasur ULUG‘OV.**  
Falsafa fanini o‘qitishda, tanqidiy fikrlashni  
rivojlantirishda pedagogik strategiyalar ..... 252

<b>Nilufar TURSUNOVA.</b> Turli yosh guruhlariga mansub topishmoqlarning sotsiologiyistik xususiyatlari.....	254
<b>Mohira HAYITOVA.</b> Qishki va murakkab sport terminlarining leksik–semantik tahlili .....	256
<b>Ilhom NORMAXMATOV.</b> Ta’lim muassasalarida sport o’yinlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishishning samarali usullari .....	258
<b>Qarshiboy SATTAROV.</b> Atletika mashg’ulotlarida pedagogikaning roli va o’quvchilarni motivatsiya qilish usullari.....	260
<b>Muzaffar MURATOV.</b> Voleybol o’yini orqali o’quvchilarda jismoniy faollik va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	262
<b>Shuhrat AXMEDJANOV.</b> Tennis mashg’ulotlarida pedagogikaning zamonaviy metodlari va o’quvchilarning faolligi .....	264
<b>Iroda JUMANOVA.</b> Jismoniy tarbiya va sportda tennis o’yinlari yordamida motivatsiyani oshirish metodlari.....	266
<b>Muhammad ZIYATOV.</b> Tibbiy axborot savodxonligi: o’quvchilarni sog’liq haqida ongli qaror qabul qilishga o’rgatishning pedagogik asoslari .....	268
<b>Muratbek YUSUPOV, Farangisbonu UMAROVA.</b> Hozirgi rus tili kelishliklari tizimining shakllanishi tarixidan .....	270
<b>Nargiza XAMIDOVA.</b> Nutqdagi xushmuomalalik vositalari: fransuz va o’zbek tillari doirasida qiyosiy yondashuv.....	272
<b>Shaxobiddin ABDULLAYEV.</b> Raqamli kommunikatsiya vositalarining zamonaviy o’zbek va ingliz tillaridagi leksik o’zgarishlarga ta’siri.....	275
<b>Nodira RASULOVA.</b> Koreys va o’zbek tillarida frazeologik sinonimiya, omonimiya, antonimiya.....	277
<b>Emina ACHILOVA.</b> Adabiyot ta’limini transformatsiya qilishda xalqaro baholash dasturlarining o’rni.....	280
<b>Dilbar HUSAINOVA.</b> Davlat tilini o’qitishning samarali usullari .....	283
<b>Dildora ABDISAMATOVA.</b> Ona tili metodikasini o’qitishda dialogik muloqotning o’rni .....	285
<b>Shaxnoza MUXTAROVA.</b> Ona tilini matematika fani bilan integratsiya asosida o’qitish metodikasi.....	288
<b>Muxlisaxon ABDUJALILOVA.</b> Ta’lim tarbiya jarayonida millatning milliy urf-odat, an’ana va milliy qadriyatlarining tutgan o’rni.....	291
<b>Shakhnoza NOROVA.</b> Dunyoni milliy–madaniy anglashning tilda voqelanishida gapdagi mustaqil elementlarning roli .....	294
<b>Zarina ISLAMOVA, Gulchinoy SHUKUROVA.</b> Amerikada eron diasporasining paydo bo’lishi.....	296
<b>Shukurjon ZARIPOVA.</b> “His qilinmagan buyuklik to’voni” abduqayum yo’ldoshning “Puankare” hikoyasi.....	299
<b>Amina MUSAYEVA.</b> Oliy ta’lim tizimida talabalarning kommunikativ kompetentligini o’stirishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati .....	302
<b>Firuz Abdurahmonova.</b> Zamonaviy ta’lim tizimida pedagog va psixolog hamkorligi .....	304
<b>Mavluda SATIYEVA.</b> Nasiruddin tusiy ilmiy merosining fors adabiyotshunosligidagi o’rni .....	306
<b>Dildora ABDULLAYEVA.</b> Alisher navoiy ruboiylarida donishmandlik va hayot falsafasi hamda uning adabiyot darslarida o’qitilishi.....	310
<b>Huriniso XAYRULLAYEVA.</b> Sharq islom adabiyotida payg’ambarlar qissalariga asoslangan “qisasul anbiyo”larning badiiy xususiyatlari .....	313
<b>Sadoqat ERKINJONOVA.</b> O’zbek adabiyotida nashridin muhammadning o’rni.....	316
<b>Madinabonu RAHMATOVA.</b> Ma’naviy–axloqiy muammolarni yoritishda mahmud toir mahorati.....	318
<b>Saidaxon SAYDIGANIYEVA.</b> Mo Yanning “musallas mamlakati” asaridagi dialektizmlar va ularning tahlili.....	321
<b>Shahnoza IZMURODOVA.</b> Sharq adabiyotida muso obrazi talqinlari .....	324
<b>Dilnoza ESANOVA.</b> Sharq mumtoz poetikasida muammo janri .....	326
<b>Maftuna AHMADJONOVA.</b> “Devonu lug’otit–turk” asaridagi o’xshashlik asosida ma’no ko’chgan polisemantik leksemalar tahlili .....	328
<b>Ziyodaxon USMANOVA.</b> Xurshid Davron ijodida tarixiy leksik qatlam.....	331
<b>Dildora OXBUTAYEVA.</b> Ikrom Otamurod she’riyatida lirik “men” va poetik tasvir .....	334
<b>Rayhona RAXMATOVA.</b> Halima ahmedova hikoyalarida ayol ruhiyatini talqini .....	337

<b>Dilnoza ABDURASULOVA.</b> O'zbek qizlari nutqida pragmatik intensiyaning ifodalanishi.....	339	<b>Ильмира САРСЕНБАЕВА.</b> Калькирование английских моделей в русской спортивной терминологии.....	389
<b>Азизбой АХТЯМОВ.</b> Прагмалингвистический анализ телевизионной рекламы.....	342	<b>Нодирабегим К. САИДОВА.</b> Когнитивные преимущества изучения арабского языка для носителей узбекского языка.....	391
<b>Ulug'berdi PARDAYEV.</b> Dil ve üslup: aziz nesin'in kisa hikaye formunda sadelik sanati.....	345	<b>Мамура МАЛЛАЕВА.</b> Эстетика внутренней драмы в рассказах А. П. Чехова «дама с собачкой» и К. Мэнсфилд «Bliss»: к проблеме художественного подтекста и психологического модернизма.....	394
<b>Sohiba ABDURAXMONOVA.</b> Psixolingvistikada bolalar nutqining o'rganilishi.....	347	<b>Умидахон НАБИЖОНОВА.</b> Образ женщины в повести Л. Улицкой «Сонечка».....	397
<b>Shirin MULLABOYEVA.</b> Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi.....	350	<b>Сабина ЮЛДАШЕВА.</b> «Поздравление» как проявление народной культуры.....	400
<b>Mahbuba ASHUROVA.</b> Umumturkiy tillarda so'z yasalishi.....	352	<b>Махмуд ФАТХУЛЛАХОДЖАЕВ.</b> Из истории употребления слова «Жуть». слово из народных поверий.....	403
<b>Sarvinoz QULTO'RAYEVA.</b> O'zbek toponimiyasida tasnif masalasi.....	354	<b>Мухлиса ШЕРАЛИЕВА.</b> Социолингвистические аспекты молодежного сленга.....	405
<b>O'ktam RAXMONQULOV.</b> Sug'urta sohasi: shakllanishi, terminologiyasi tarkibi va tasnifi.....	356	<b>Рушана ХАЙРУТДИНОВА.</b> Методика развития аналитического мышления учащихся на основе нейропедагогического подхода.....	407
<b>Muharram QURBONOVA.</b> Leksik birliklar – she'riy matnda poetik vosita sifatida (Xurshid Davron she'riyati misolida).....	359	<b>Сайида АРИПОВА.</b> Медицинская терминология в лингвистическом и лингвокультурологическом аспектах.....	409
<b>Feruza ANORBAYEVA.</b> Fransuz tilidagi so'roq gaplarning turli kommunikativ funksiyalari va ularning diskursiv jarayonda tutgan o'rnini tahlil qilish.....	361	<b>Зулайхо НИЗОМИТДИНОВА.</b> Когнитивно-прагматические механизмы языковой игры в медиатексте (на материале современных СМИ).....	411
<b>Vohida YULDOSHEVA.</b> Tabu va evfemizm: o'zbek va nemis tillarida lingvistik va madaniy yondoshuv.....	364	<b>Саодат РАСУЛОВА.</b> Лингвистический анализ культурных реалий: феномен безэквивалентности и его когнитивные основы.....	414
<b>Bashorat BOVMANOVA.</b> “Halollik” umummadaniy qadriyat sifatida.....	367	<b>Гузалхон КАРИМОВА.</b> Использование современных коммуникационных технологий для развития информационных навыков у будущих воспитателей.....	416
<b>Nozimaxon XOLMATOVA.</b> Kasbiy diskursda sukut saqlashning pragmatik va lingvokulturologik tahlili.....	369	<b>Dilnavozxon YOKUBJONOVA.</b> Dreams and disillusionment: the collapse of the american dream in f. scott fitzgerald's works.....	419
<b>Iroda UMAROVA.</b> Ta'limda ai: pedagogik innovatsiyalar va ularning o'qituvchilar va talabalarga ta'siri.....	372	<b>Gulyora SAIDOVA.</b> Addressing the data security concerns associated with using cloud-based translation tools and platforms in written translation.....	421
<b>Умида ЙУЛДАШОВА.</b> Методические этапы улучшения видов речевой активности студентов экономических и финансовых специальностей.....	375	<b>Saodat AGZAMKHODJAEVA.</b> Conceptual diversities and empirical shortcomings – a critical analysis of research on inclusive education.....	424
<b>Фазлиддин НАЖМИДДИНОВ.</b> Изучение лексики русского языка в ономасиологическом плане.....	378		
<b>Эльвина ВЕЛИШАЕВА.</b> Работа с текстом на занятиях русского языка.....	380		
<b>Дильфуза ХУСЕНОВА.</b> Типология видов номинации в современном русском языке.....	383		
<b>Шоира ХАШИМОВА.</b> Категория «дома» в русской литературе: от идиллии к утрате.....	386		

## PEDAGOGIKA

- Dilorom ZAKIROVA.**  
Nonverbal and verbal indicators  
of personality: facial expressions'  
communicative connotations ..... 426
- Khilola OTAKHONOVA.**  
Improving the methodology of teaching  
students to work with media texts based on the  
linguistic and cultural approach ..... 429
- Alisher HAMIDOV.**  
Developing professional skills  
in simultaneous interpreting: a balance  
of theory and practice ..... 432
- Jahongir TURSUNHODJAYEV.**  
Lexical aspect of teaching linguistic  
and cultural studies..... 434
- Sirojiddin SHOXOBIDDONOV.**  
Presupposition as a linguistic marker  
of intentionally oriented  
manipulative statements..... 436
- Sarvinoz KUVANDIKOVA.**  
From theory to practice: teachers' roles  
in cultivating communicative  
competence in students ..... 439
- Khusan NORMATOV.**  
A stylistic study of hyperbole  
in english and uzbek..... 441
- Dildora SABIROVA.**  
Comparative rhetorical features  
in the speeches of english and uzbek  
pedagogical professionals ..... 444
- Dilsora AKHMEDOVA.**  
The semantic structure of action verbs  
in english and uzbek..... 446
- Odil YOQUBOV.**  
Use of passive constructions in english  
and uzbek and their comparative analysis ..... 448
- Gulnoz TOLIBOVA.**  
Challenges of intensive teaching  
of english language to adults and ways  
to overcome them..... 451
- Umida KARIMOVA.**  
Analysis of the current state of english  
language teaching practices in military higher  
educational institutions ..... 454
- Dilnavozkhon YOKUBJONOVA.**  
The aesthetic novelty of adolescent protagonists i  
n the lost generation literature ..... 457
- Mohira UMARALIYEVA,  
Turobidinova MOKHIGUL.**  
Enhancing translator students'  
english speaking skills through a temperament-based  
exercise system: an integration into  
practical translation classes..... 460
- Sharifa OLIMOVA.**  
Enhancing skills in applying modal expressions  
during spoken communication ..... 463
- Diloromxon XOSHIMOVA,  
Mirzarahim ZOKIROV,  
Zumrad DJURABOYEVA.**  
O'quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishning  
pedagogik-psixologik asoslari ..... 467
- Nigora SAIDOVA.**  
Maktabgacha yoshdagi bolalarda xotira, e'tibor va  
tafakkurning neyropedagogik asoslari ..... 469
- G'iyos DO'STMURODOV.**  
Sotsiologiya darslarida ijtimoiy  
muammolarni o'rganishda interfaol metodlarning  
qo'llanilishi ..... 471
- Sarvarbek ZOHIDOV.**  
Kredit-modul tizimida  
talabalarning nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirish  
metodikasi ..... 474
- Sevara SHODMONQULOVA.**  
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini jamoaviy  
munosabatlarida madaniyatshunoslik  
yondashuvi va uning mohiyati ..... 476
- Қуандық БОТАБАЕВ.**  
Педагогтың кәсіби шеберлігін  
қалыптастыру ..... 479
- Ирина ЧЕГРИНСКАЯ.**  
Применение современных  
педагогических технологий при изучении  
условных отношений в  
специализированном вузе ..... 482
- Индира НАРКУЛОВА.**  
Роль методики kaizen  
в совершенствовании коммуникативной  
компетенции военнослужащих ..... 486
- Мирзаали ФАЙЗИЕВ,  
Нигина ХАМЗАЕВА.**  
Подготовка будущих учителей к творческой  
педагогической деятельности..... 489
- Феруза ДЖАЛИЛОВА.**  
Научно-методические аспекты осуществления  
педагогической деятельности в высших учебных  
заведениях ..... 492
- Ш.И. КУРБАНОВА.**  
Использование интерактивных методов  
обучения в изучении русского языка в группах  
с нерусским языком обучения ..... 494
- Муборак МАХМУДОВА.**  
Использование кейс-метода  
в процессе обучения на занятиях  
русского языка как иностранного..... 497
- Orzikhon MAMAZIYOYEVA.**  
Methods for the development of linguistic  
competence of students on the basis of modern  
educational technologies (on the example  
of teaching english) ..... 500

## KICHIK TADQIQOT

- Zumrad ESHMIRZAYEVA.**  
Publitsistikada hissiy triggerlar:  
neyromarketing va adabiy ta'sir  
uslublari o'zaro uyg'unligi ..... 504
- Gulnoza JUMAYEVA.**  
Badiiy adabiyotda uslub tushunchasi ..... 507
- Maftuna MUXANOVA.**  
Navoiy obrazi: tarixiy haqiqat  
va badiiy to'qima ..... 509
- Madinaxon G'OFUROVA.**  
Cho'lponning "qurboni jaholat"  
hikoyasida davr va qahramon ..... 512
- Xumora YUSUPOVA.**  
Ayol va erkinlik: cho'lpon  
she'rlari misolida ..... 515
- Ro'zixon XOLMATOVA.**  
"Ikki eshik orasi" romanida qora amma obrazi  
ruhiyatining nutq tiplari orqali ochilishi ..... 518
- Muniraxon UMAROVA.**  
Roshad nuri guntekinning "choliqushi" romanini  
kognitiv yondashuv asosida o'qitish orqali  
o'quvchilarning intellektual-madaniy  
rivojlanishini ta'minlash ..... 520
- Maftuna DAVRONOVA.**  
Zamonaviy o'zbek adabiyotida  
obrazlarning yangilanishi ..... 523
- Parizoda AHRORXO'JAYEVA.**  
Elbek, botu hikoyalarida ayol xarakteri.  
ayol, er va zamon munosabati ..... 526
- Shahnoza OLTINOVA.**  
Xalq dostonlarida noodatiy tarzda tug'ilgan  
obrazlarning o'zaro bog'liqligi ..... 530
- Yulduz ALIQULOVA.**  
"Olomon" hikoyasining  
ramziy xususiyatlari ..... 533
- Dilshunos RAHMONTALIYEVA.**  
Qo'chqor norqobilning "zamon avloniyasi"  
dramasining psixolingvistik tahlili ..... 536
- Gulxayo XOSHIMJONOVA.**  
Ilmiy-texnik sohadagi jarayon ifodalovchi  
terminlarning mazmuniy maydon tasnifi va  
ularning diskurs xususiyatlari ..... 539
- Dilnoza JURAYEVA.**  
Psixologik diskursda tarjima muammolari:  
lingvistik va madaniy jihatlar ..... 542
- Shohjahon MELIQULOV.**  
Onomastik nomlar va ularning  
adabiyotshunoslikdagi ahamiyati ..... 545
- Hurriyat IBRAGIMOVA,  
Abdujabbor ALIQULOV.**  
"Blogosfera va jamoatchilik fikri:  
zamonaviy kommunikatsiyaning  
yangi qirralari" ..... 548
- Manzura KURBONMUROTOVA.**  
Ingliz va o'zbek oav tilida siyosiy so'zlarning  
leksik-semantik o'ziga xosligi ..... 551
- Hulkarjamol BOBOXONOVA,  
Turayeva UMIDA.**  
Inglizcha musiqa atamalarining o'zbek tiliga kirib kelish  
jarayoni va lingvistik xususiyatlari ..... 553
- Mahfuza MADAMINOVA.**  
Shoira shams ijodi lingvopoetik tahlili .  
"samandar" devonida qo'llanilgan antonimlar ..... 555
- Gulrux SATTOROVA.**  
Yangi o'zbek nasrida hajviy  
hikoyachilik takomili ..... 557
- Asroriddin SAYDAZIMOV.**  
Audio asarlardan foydalanish imkoniyatlari ..... 559
- Umidaxon JUMANAZAROVA.**  
Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy  
kompetensiyasini jahon va o'zbek adabiyotining  
qiyosiy tahlili vositasida rivojlantirishning  
pedagogik-psixologik xususiyatlari ..... 563
- Sevara XOLIYEVA.**  
3-sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda  
kreativlikni shakllantirishning ahamiyati ..... 567
- Malika SINDAROVA.**  
CEFR asosida chet tilini o'rgatuvchi  
o'qituvchilar malakasini oshirish:  
tajriba va istiqbollari ..... 569
- Madinaxon ERKINOVA.**  
Xalq rivoyatlarida ustoz va  
shogirdlik munosabati talqini ..... 571
- Zebuniso QAHRAMONOVA.**  
Ko'rish nuqsoniga ega shaxslar nutqi va  
muloqotining nutqiy bo'lmagan  
vositalarini rivojlanishi ..... 573
- Мадинабону АХМЕДОВА.**  
Методика формирования музыкального  
слуха у младших школьников ..... 576
- Nigina DO'STBEKOVA.**  
Phonetic accuracy through intensive methods:  
a study of secondary school esl students ..... 579
- Farzona CHORIYEVA.**  
Etymology features of language taboos and  
euphemisms ..... 581
- Nigora MUKHAMEDOVA.**  
Meanings and functions of modal  
verbs in linguistics ..... 584